

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

TASBIQLANGAN VA ANALOGA KINTILANGAN

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligini
2024-yil "25" - do'st - dengiz - soylar boyruq bilan
tashkil qilangan.

JORIV ETI GAM:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

60320100 - Jurnalistika bakalavriat ta'lim yo'naliшining

MALAKA TALABI

Mazkur Malaka talablar "Oliy ta'llinining davlat ta'lim standarti Asosiy qoidolar", "Oliy ta'llinining darbir ta'lim standarti", Oliy ta'limi va qalishlari va muassasishiklari klassifikasiotchi O'zbekiston Respublikasi Milliy va turmush shaharo dojralari (funksiya), konserv standartlar va kodrlar boyurumachilariga taqdimiga muvofiq ishlab chiqilgan va tansiy me'yony-qsilubiy bujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi tashodida Malaka talablarini rasmiy chop etish
huqeqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
legishindir.

Toshkent-2024



MENDARISA

ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil “25” 06 dagi 218 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilarii taklifiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

1. Umumiy tavsif

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanilishi	4
1.1.2.	Malaka talablarning asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarning tavsifi	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatlarning sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarning obyektlari	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarning turlari	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalar	5
2.	Kasbiy kompetensiyalarga qo‘yiladigan talablar.....	7
3.	Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	8
4.	Fanlar katologining tuzilishi	8
	Bibliografik ma’lumotlar	10
	Kelishuv varag‘i	11

1. Umumiy tavsifi
 1.1. Qo‘llanish sohasi
 1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi
 1.1.2. Malaka talablarning asosiy foydalanuvchilari.
 1.2. Kasbiy faoliyatlarning tavsifi
 1.2.1. Kasbiy faoliyatlarning sohalari
 1.2.2. Kasbiy faoliyatlarning obyektlari
 1.2.3. Kasbiy faoliyatlarning turlari
 1.2.4. Kasbiy vazifalar

2. Kasbiy kompetensiyalarga qo‘yiladigan talablar
 2.1. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar
 2.2. Fanlar katologining tuzilishi

3. Kasbiy faoliyatning tavsifi
 3.1. Kasbiy faoliyatning sohalari
 3.2. Kasbiy faoliyatning obyektlari

60320100 – Jurnalistika qurumi bilan va shaharli qohang‘izda faydalashish
 bo‘lib, milliy va zakarni OAV tashkiloti, davlat va nashra-taymish uchun
 jumollach, moliyati bilan shug‘ullanish, jurnalistikaning tafsili, foydalanuvchi
 bo‘yicha materiallar tayyorlash, televideoniga va radio shuningda hozirgan
 elektronikler tayyorlash, shahor agentlliklar shahrida hozirgan xizmati korinish
 ikerma jurnalistikasi va emmaviy kommunikatsiya xonalarda xizmat
 personellari tayyorlash va tazajjib qilish uchun shaharli qohang‘izda
 shaharxonada muhammadiy hujayro hujayro qurashchi tayyibat hozirgan xizmat
 bo‘lganlari bilan bog‘liq tashkiloti, shahar xizmati korish o‘sidi

4. Fanlar katologining obyektlari
 4.1. Fakultet akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari va inqilobdagi hamda
 shaharxonada shahar xizmati korish o‘sidi

5. Fakultet va nashra-taymish uchun, ko‘chaga va muzey-salar, kompaniyalar (firmalar),
 shaharxonada shahar xizmati korish o‘sidi
 6. Amaliyot xizmati korish o‘sidi, davlat hozirganuvchi organlari, davlat va nashra-taymish
 xizmati korish o‘sidi, shahar xizmati korish o‘sidi

1. Umumiy tavsifi

60320100 - Jurnalistika ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi 60320100 - Jurnalistika ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilarini:

mazkur ta’lim yo‘nalish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruva xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilar;

ta’lim yo‘nalishining o‘quv reja va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestasiya komissiyalar;

ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlar;

oliy ta’lim muassasasini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatning tavsifi

1.2.1. Kasbiy faoliyatning sohalari:

60320100 - Jurnalistika-jurnalistika va axborot sohasidagi mutaxassislik bo‘lib, milliy va xalqaro OAV tashkilotlari, davlat va nodavlat OAV tahririylarida jurnalistik faoliyat bilan shug‘ullanish, jurnalistikaning barcha ixtisosliklari bo‘yicha materiallar tayyorlash, televideniye va radio tahririylarida ko‘rsatuv va eshittirishlar tayyorlash, axborot agentliklari sohasida axborot xizmati ko‘rsatish, internet jurnalistikasi va ommaviy kommunikatsiya sohalarida axborot mahsulotlarini tayyorlash va uzatish, nashriyot-matbaa konsernlari va bosmaxonalarda muharrirlik faoliyati bilan shug‘ullanish, faoliyati axborot xizmati ko‘rsatish bilan bog‘liq tashkilotlarda ish olib borish kabi majmualarni qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatning obyektlari:

Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati;

davlat va nodavlat tashkilot, korxona va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalarida boshqaruvi faoliyati;

ommaviy axborot vositalari, davlat boshqaruvi organlari, davlat va nodavlat organlari axborot xizmatlarida jurnalistik faoliyati;

O‘zMTRK tarkibiga kiruvchi teleradiokanallarda jurnalistik faoliyati; Milliy media birlashmasi tasarrufidagi teleradio kanallarida jurnalistik faoliyat; axborot va reklama agentliklari faoliyatini tashkil etish va boshqarish; internet tarmoqlari, saytlar, ijtimoiy tarmoqlar faoliyatni tashkil etish va boshqarish;

davlat boshqaruvi organlari, vazirliklar, korxona va idoralar matbuot markazlari faoliyati;

jamoatchilik bilan aloqalar (PR) va axborot xizmatlarida faoliyatni tashkil etish va boshqarish;

nashriyot-matbaa konsern va bosmaxonalarda faoliyatni tashkil etish va boshqarish.

davlat boshqaruvi organlari, vazirliklar, korxona va idoralar matbuot markazlarining faoliyaati;

jamiatda tezkor axborot almashinuv va ishonchli axborot bilan ta’minalash faoliyati.

60320100 - Jurnalistika ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o‘tgandan keyin, professional ta’lim muassasalarida ta’limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o‘qitish bo‘yicha pedagogik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘ladi.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *loyihaviy-konstrukturlik;*
- *axborot-tahliliy faoliyat.*

1.2.4. Kasbiy vazifa.

60320100 - Jurnalistika ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

milliy va xorijiy OAV faoliyatini tadqiq qilish, ular faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarni jahon jurnalistikasi sifat va standart mezonlariga qiyoslagan holda milliy jurnalistika va OAV faoliyati uchun samarali bo‘lgan jihatlarni ko‘rsatib bera olish;

internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy, jurnalistik ijodga oid yutuqlar haqidagi informatsiyani maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;

ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (tayyorlanganlik profiliga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish;

ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, jurnalistik, publisistik va filologik adabiyotlar ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

ma’lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo‘yicha ilmiy ma’lumotlarni tizimli tahlil qilish;

o‘tkazilayotgan ilmiy-tadqiqot loyihalari mavzusi bo‘yicha modellar, metodlar, tahliliy obyekt va predmetni o‘rganish, mavzu muammosini tadqiq qilish va ilmiy yechimlarini ishlab chiqish;

ilmiy nazariy qarashlari va OAV amaliy faoliyati bo‘yicha eksperimental tadqiqotlarni o‘tkazish va ularning natijalariga ishlov berish;

ilmiy hisobotlar va tushuntirish xatlarini ishlab chiqish;

o‘tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo‘yicha ilmiy hisobotlar, loyihalashtirish ishlarini tayyorlash, mustaqil ishlar va bibliografiyalar tuzish;

ilmiy-amaliy anjumanlarda ishtirok etish va ilmiy jurnallarga maqolalar tayyorlash;

tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish;

ma’lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo‘yicha ilmiy ma’lumotlarni tizimli tahlil qilish.

oliy ta’lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta’lim muassasalarida mutaxassisligi bo‘yicha pedagogik va o‘quv-uslubiy faoliyat yuritish;

o‘quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o‘qitishning texnik vositalaridan foydalanib o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish;

elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o‘quv- metodik majmualarni mukammal o‘zlashtirish;

pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatda:

OAV faoliyatini yo‘lga qo‘yish, uning huquqiy asoslari, tashkiliy tuzilmalari hamda qonun asosida amalga oshiriladigan faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilish;

ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan xodimlar ijodiy jamoasi, faoliyat vositalari va resurslarini rejorashtirish;

axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

jamoada ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;

fikrlar har xil bo‘lgan sharoitda to‘g‘ri va sog‘lom qaror qabul qilish;

bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash.

Loyihaviy-konstrukturlik faoliyatida:

yangi media biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;

media biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

loyihaviy va dasturiy hujatlarni ishlab chiqish;

amaliyotda axborot kommunikatsiya texnologiyalarning xalqaro va kasbiy

standartlarini, zamonaviy uslublarini, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo‘llash.

Axborot-tahlili faoliyatida:

ilmiy va amaliy faoliyatda jurnalistik ijod mahorati va ko‘nikmalarini rivojlantirib borish va ulardan foydalanish;

milliy va xalqaro kasbiy etika kodeksiga rioya qilish;

ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan resurslarni rejalashtirish;

ishlab chiqarish faoliyati sifatini ta’min etuvchi boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;

ishlab chiqarish jarayonlarida atrof-muhit muhofazasi, yong‘in, texnika va mehnat xavfsizligini ta’minlash;

yo‘nalishiga mos mavzulardagi loyihalar, manbalar, adabiyotlar, elektron video va audio maxsulotlarni ekspertiza qilish;

ixtisoslikka mos sohalar bo‘yicha konsalting xizmatlarini ko‘rsatish;

soha bo‘yicha tegishli servis xizmati ko‘rsata olishi, jurnalistika sohasida maslahatchilik, tarjimonlik, axborot to‘play olish yo‘llari, uslublarini qo‘llay olishi va tashkiliy ishlarni bajara olish;

yo‘nalishiga mos mavzulardagi loyihalar, manbalar, adabiyotlar, elektron video va audio mahsulotlarni ekspertiza qilish;

ixtisoslikka mos sohalar bo‘yicha konsalting xizmatlarini ko‘rsatish.

2. Kasbiy kompetensiyaga qo‘yiladigan talablar.

davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoliy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

OAV, mass-medianing huquqiy asoslari, tashkiliy tuzilmalari hamda qonun asosida amalga oshiriladigan faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

ilmiy va amaliy faoliyatda jurnalistik ijod mahorati va ko‘nikmalarini rivojlantirib borish va ulardan foydalanish;

media sohasidagi milliy va xalqaro kasbiy etika kodeksiga rioya qilish;

geosiyosiy dunyoqarash bilan bog‘liq tizimli bilimlarga ega bo‘lish;

mass media orqali axborot xizmati ko‘rsatish qobiliyatlariga ega bo‘lishi;

global kompyuter tarmoqlarida ma’lumotlar bilan ishlash;

yangiliklar va axborot bilan ishlash va kontentini yaratish hamda to‘ldirib borish;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo‘llay bilishi, axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

zamonaviy reklama yaratish texnologiyalaridan foydalanish va reklama xizmatlari ko‘rsatish;

sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish;

dunyoqarash bilan bog‘liq tizimli bilimlarga ega bo‘lishi;

gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;

Vatan tarixini bilishi, ma’naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o‘z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy g‘oyaga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo‘lishi;

insonning boshqa insonga, jamiyatga va atrof muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy hamda ma’naviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;

axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishslash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, o‘z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi.

3. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.

Malakaviy amaliyot–umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratildi.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

1. O‘quv-tanishuv amaliyoti;
2. Ishlab chiqarish amaliyoti;
3. Bitiruv oldi amaliyoti.

4. Fanlar katalogining tuzlishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiyluklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	4320	144	
1.01.	OEYT1104	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02.	OZRT1104	O‘zbek (rus) tili	120	4	1
1.03.	JOKA1104	Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiya asoslari	120	4	1
1.04.	MJJT1104	Milliy va jahon jurnalistikasi tarixi	120	4	1
1.05.	MATK1128	Mediada axborot texnologiyalari va kompyuter grafikasi	240	8	1,2
1.06	YVRM1110	Yangiliklar va reportyorlik mahorati	300	10	1,2
1.07.	IVKT1204	Internet va kommunikatsiyalar tarixi	120	4	2
1.08.	FALS1204	Falsafa	120	4	2
1.09.	MTVU1104	Media tili va uslubi	120	4	2
1.10.	AUDJ1304	Audiovizual jurnalistika	120	4	3
1.11.	MVFC1304	Mediasavodxonlik va fakt checking	120	4	3
1.12.	TAHJ1310	Tahliliy jurnalistika	240	8	3,4

1.13.	OVJA1310	O‘zbek va jahon adabiyoti	300	10	3,4
1.14.	DINS1404	Dinshunoslik	120	4	4
1.15.	NOTS1504	Notiqlik san‘ati	120	4	5
1.16.	PUBE1504	Publitsistika va esseistika	120	4	5
1.17.	TAHM1510	Tahrir mahorati	300	10	5,6
1.18.	MULJ1604	Multimediaviy jurnalistikasi	120	4	6
1.19.	MHME1605	Media huquqi. Media etikasi.	120	4	6
1.20.	DATJ1704	Data jurnalistikasi	120	4	7
1.21.	MPMS1704	Media psixologiyasi. Media sotsiologiyasi	120	4	7
1.22.	MEVM1704	Mediamarketing va mediamenejment	120	4	7
1.23.	CHET1130	Chet tili (sohaga yo‘naltirilgan chet tili)	900	30	1,2,3,4,5,6
2.		Tanlov fanlari	1800	60	3,4,5,6,7,8
		Kvalifikatsiya		Jurnalist	
		JAMI	6120	204	
		Malakaviy amaliyot	900	30	2,4,6,8
		Bitiruv malakaviy ishi	180	6	8
		JAMI	1080	36	
		Hammasi	7200	240	

*OTM o‘quv jarayonlarini tashkil etish hususiyatidan kelib chiqib, semestrlar uchun belgilangan umumiy kredit miqdorini muvofiqlashtirilgan holda fanlar o‘tiladigan semestrlarni o‘zgartirish mumkin.



Bibliografik ma’lumotlar

UDK: 050:720(575.1)

Guruhi T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so‘zlar:

Matbuot, reportaj, intervju, audiovizual jurnalistika, auditoriyani segmentlash, axboriy matbuot, axborot jamiyati, axborot - kommunikatsion boshqaruv, axborot-psixologik xavfsizlik, Associated Press (AP), analiz, anketa, antrefile, argument, afisha, banal, bosma ommaviy axborot vositalari, brifing, bingo-karta, bloggerlik, blits-intervju, videorolik, videoplayer, VIP-jurnal, gazeta “o‘rdagi”, geosiyosat, OAV globallashuvi, grafomaniya, dalillash, dezoriyentatsiya, demagogiya, demoskopiya, de-fakto, de-yure, drayv-taym, bestseller, harbiy jurnalistika, hududiy matbuot, bulvar jurnalizmi, virtual dunyo, ommaviy kommunikatsiya, onlayn jurnalistika, pablik rileyshnz, axborot globallashuvi, dezinformatsiya, jadidlar matbuoti, janr, radio jingl, jurnalist surishtiruvi, jurnalistikada deontologiya, jurnalistikada avtoritarizm, jurnalistik jingoizm, imijmeyker, interaktiv jurnalistika, intervju-dialog, iqtisodiy jurnalistika kompozitsiya, kommunikatsiya modellari, kompromiss, konvergentsiya, konsensus, kontent-tahlil, kreativ, marketing kommunikatsiyasi, mass-media, media-biznes, mediata’lim, matbuot konferensiyasi, media-matn, montaj, personal jurnalistika, plyuralizm, postindustrial jamiyat, psixologik urush, press-reliz, Reyter, reklama texnologiyalari, press-reliz, press-kit, reportaj, san’at jurnalistika, sayohat jurnalistika, sport jurnalistika, stringer jurnalistika, teleradio jurnalistika tijoriylashuv, faktologik janrlar, Frans press, frilans, xalqaro jurnalistika xronika, sharhlovchilik, epitajli intervju, ekojurnalistika.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta’lim muassasalari hamda kadrlar
iste’molchilari
ISHLAB CHIQILGAN:

O’zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Rektor


Sherzodxon Qudratxo'ja
2024-yil « ____ »
M.O.

KELISHILDI:

O’zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish
tadqiqotlar markazi

Direktor  M.Boltabayev

2024-yil « ____ »
M.O.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar agentligi

Direktor  A.Xodjayev

2024-yil « ____ »
M.O.

O’zbekiston Milliy universiteti

Rektor  I.Madjidov


2024-yil « ____ »
M.O.

O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Rektor  J.To'xtasinov


2024-yil « ____ »
M.O.

O’zbekiston Milliy axborot agentligi

Bosh direktor  A.Ko'chimov


2024-yil « ____ »
M.O.

O’zbekiston Jurnalistlar ijodiy uyushmasi

Raisi  X.Salimov

2024-yil « ____ »
M.O.

O’zbekiston milliy teleradiokompaniyasi

Rais  A.Io'raboyev

2024-yil « ____ »
M.O.

O’zbekiston milliy media birlashmasi

Bosh direktori  A.Abutalipov

2024-yil « ____ »
M.O.